

31-oktyabr – 7-noyabr 2021-y. Toshkent shahridagi Turin Politehnika universiteti delegatsiyasi AQSHga xizmat safari bo'yicha XISOBOT

Toshkent shahridagi Turin Politehnika universiteti (TTPU) delegatsiyasining Amerika Qo'shma Shtatlari Pitsburg davlat universitetiga amalga oshirgan xizmat safari davomida hamkorlikni kengaytirish borasida olib borgan muzokaralari davomida erishilgan natijalar:

1. Pitsburg davlat universiteti prezidenti Steven A. Scott bilan uchrashuv davomida, Avtomobilsozlik texnologiyasi yo'nalishida tashkil etilgan 2+2 ta'lim dasturiga qo'shimcha tarzda yangi loyihalarni amalga oshirish, universitetlar o'rtasida professor-o'qituvchilar almashinuvini yo'lga qo'yish, Pitsburg davlat universiteti Biznes kollejining Biznes boshqaruvi bakalavr dasturini O'zbekistonda tashkil etish taklifi berildi. Ushbu takliflar Pitsburg davlat universiteti prezidenti tomonidan yaxshi qabul qilindi va kelgusida ushbu yo'nalish bo'yicha ma'sullar bilan ushbu loyihalarni amalga oshirish bo'yicha kelishib olindi.

2. Kelke Biznes kolleji vakillari (Dr.Maeve Cummings, Dr. Stephen Horner, Dr. Bienvenido Cortes) bilan uchrashuv davomida Biznes boshqaruvi (Bachelor of Business Administration Degree with a Major in Computer Information Systems) ta'lim dasturini TTPUda tashkil etish bo'yicha muzokara olib borildi. Ushbu dasturni muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga Pitsburg davlat universiteti diplomi beriladi. Muzokaralar davomida TTPU da mavjud Dasturiy injiniring va Kompyuter injiniring dasturlarida o'qitiladigan

fanlar o'rganib chiqilishi va AKT ga oid fanlardan TTPU professor-o'qituvchilari dars o'tishi kelishib olindi. Biznes boshqaruvi mutaxassisligi bo'yicha darslar AQSHlik professorlar tomonidan talabalarga masofadan yoki professorlar kelgan holda tashkil etilishi o'rganib chiqiladigan bo'ldi.

3. Avtomobil texnologiyalari yo'nalishi mudiri (Dr.Thompson) bilan uchrashuv davomida, TTPU mashinasozlik texnologiyasi yo'nalishi talabalari ikkinchi bosqichni tamomlagandan keyin o'qishini davvom ettirish uchun Pitsburg davlat universiteti Avtomobilsozlik texnologiyasi yo'nalishida 3 kursdan tahsil olishi kelishib olindi. TTPU da o'zlashtirgan 2 yillik kreditlari (57 AQSH krediti) Pitsburg davlat universiteti Avtomobilsozlik texnologiyasi yo'nalishiga qabul qilinadi. 60-65 kreditni Pitsburg davlat universiteti Avtomobilsozlik texnologiyasi yo'nalishida o'zlashtirishi zarur. Univeristetda kontrakt to'lovi uchun yagona narx belgilanagan, talaba o'z ixtiyoriga ko'ra qo'shimcha fanlarni bepul o'qishi mumkin.

4. Texnologiya mutaxassisligi magistratura bo'limi vakillari (Andrew M. Klenke, Tatiana V. Goris, Derrel Fincher) bilan uchrashuvda Avtomobilsozlik muhandisligi, Axborot texnologiyalari, Texnologiya boshqaruvi, Qurilish boshqaruvi mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma 1+1 magistratura tashkil etish bo'yicha muzokara olib borildi. Ushbu magistraturada tahsil olgan talabalar 1 yil TTPU da o'zlashtirgan kreditlarining 9 kreditini (3 ta fan) Pitsburg davlat universitetiga transfer qiladi va magistraturani muvaffaqiyatli tamomlagan talabalarga TTPU va Pitsburg davlat universiteti diplomi beriladi. Kelgusida boshqa mutaxassisliklar bo'yicha ham hamkorlikda qo'shma dasturlar tashkil qilinishi rejalashtirildi.

5. San'at va fanlar kolledji professori (Dr.Bobby Winters) bilan uchrashuvda TTPU da mavjud Dasturiy injiniring va Kompyuter injiniring dasturlari bazasida Pitsburg davlat universitetining Informatika yo'nalishi (Kompyuter axborot tizimlari) bilan 2+2 dasturini tashkil etish bo'yicha

boshlang'ich izlanishlar olib borishga kelishib olindi.

6. Texnologiya kolleji dekani (Robert Frisbee) bilan uchrashuvda Muhandislik va texnologiya sohasida TTPU professor-o'qituvchilarni O'zbekistonning El-yurt umidi jamg'arma fondi orqali stajirovka, qayta tayyorlash va malakasini oshirish uchun qisqa muddatli ta'lim dasturida ishtirok etish uchun yuborish kelishib olindi. AQSHning ta'lim va ilmiy-tadqiqot yo'nalishlarida hamkorlikni rivojlantirish uchun American Councils UniCEN (Central Asia University Partnerships Program), FEP (Faculty Enrichment Program) dasturlarida ishtirok etish kelishib olindi. Shuningdek, AQSHning USAID tashkiloti tomonidan Oliy ta'limni rivojlantirish uchun taqdim etadigan grant dasturi HELIX (The Higher Education for Leadership, Innovation, and Exchange) ga hamkorlikda loyiha topirish kelishib olindi.

7. Universitetning ilmiy tadqiqot markazi ma'suli (Ram Gupta) bilan uchrashuv davomida 2 ta TTPUning ximiya yo'nalishida ilmiy tadqiqot olib borayotgan professor-o'qituvchilarni hamkorlikda izlanish olib borish uchun Pitsburg davlat universitetiga qabul qilishi keleshib olindi.

Xizmat safari davomida erishilgan asosiy natijalar:

- Pitsburg davlat universitetining Biznes boshqaruvi yo'nalishida filialini tashkil etish kelishib olindi.
- Avtomobilsozlik texnologiyasi, Qurilish boshqaruvi, Kompyuter axborot tizimlari 2+2 qo'shma ta'lim dasturini tashkil etish bo'yicha kelishuvga erishildi;
- Avtomobilsozlik muhandisligi, Axborot texnologiyalari, Texnologiya boshqaruvi, Qurilish boshqaruvi mutaxassisliklari bo'yicha qo'shma 1+1 dasturi tashkil etilishi kelishib olindi;
- El-yurt umidi jamg'armasi fondi orqali professor-o'qituvchilarni malaka oshirish va stajirovkaga yuborish kelishib olindi;

- O'zbekistonda tashkil etilgan AQSHning vakolatli tashkilotlari grant dasturlariga hamkorlikda loyiha topshirish kelishib olindi.









